


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



XORIJIY SHARQ (DARIY) TILI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 230 000 – Tillar
60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish
(sharq tillari bo'yicha)

Toshkent - 2024

Fan/modul kodi XShT11-874		O'quv yili 2024/2025 2025/2026 2026/2027 2027/2028	Semestr 1,2,3,4,5,6,7,8	ECTS - Kreditlar 10,10,10,10,10,10,8,6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 10,10,10,10,10,10,8,6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Xorijiy sharq tili (Dariy tili)	888	1332	2220	
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanlarning mazmuni</p> <p style="text-align: center;">“Xorijiy sharq tili” fani bo'yicha</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - hozirgi dariy tilining nazariy va amaliy asoslari haqida atroflicha bilim berish, ularda dariy tilida erkin va mustaqil mushohada yuritish, egallagan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llash malakasini shakllantirish, soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot olib borish ko'nikmalarini berishdan iborat. Sakkiz semestrda mo'ljallangan kurs mobaynida talabalar dariy tiliga oid asosiy ma'lumotlarni bilib olish bilan birga, tilning uslublari, tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari e'tiborga olinadi. Shuningdek, talabalarda mazkur tildan C1 darajasidagi malaka va ko'nikma shakllantiriladi.</p> <p>Fanning vazifasi - nutq amaliyoti talabalarning mantiqiy tafakkurini, xorijiy tilidagi nutqiy qobiliyatini, xotirlash turlari, fikrlari, umumnutqiy va umumta'limiy yo'riqlarni, til bo'yicha mustaqil ishlash malakalarini rivojlantirish, dariy tili darslarida turli nutqiy vaziyatlarga taalluqli bo'lgan autentik kasbiy-yo'naltirilgan fikrlarning asosiy mazmunini bir marotaba eshitishda to'liq tushunish va zaruriyat tug'ilganda undan aniq ma'lumotni ajratish, ro'y berayotgan voqea-hodisalar haqidagi yangiliklar va reportajlarni tushunish, ko'pgina filmlarni, agar ularning qahramonlari adabiy tilda gapirayotgan bo'lsa, mazmunini tushunish, kasbiy-yo'naltirilgan kommunikativ vaziyatlarga taalluqli erkin va standart dialoglarda ishtirok etishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarda afg'on xalq og'zaki ijodi, dariy zamonaviy xalq adabiyoti namunalari, afg'on adabiyotining yuksalish davri, afg'on adib va shoirlari haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p>				

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

“Xorijiy sharq tili” fanidan darslar amaliy mashg'ulot sifatida tashkil etiladi.

XORIJIY SHARQ TILI

1-BOSQICH AI DARAJA (BOSHLANG'ICH: O'QISH VA YOZISH AMALIYOTI)

1-mavzu. Dariy tili fonetik timizi

Dariy tilidagi tovushlar tarkibi va urg'u haqida umumiy ma'lumot. *a* unlisi. *l, š, ž, j* undoshlari. *u* va *i* unililari. *w* undoshi.

2-mavzu. Ot-kesimli sodda yig'iq gaplar

Ot-kesimli sodda yig'iq gap. *In* olmoshining aniqlovchi vazifasida qo'llanilishi. *ki* va *çi* so'roq olmoshlari. *â* unlisi. *An* ko'rsatish olmoshi. *yâ* bog'lovchisili so'roq gap.

3-mavzu. Dariy tilida unilarning talaffuzi

e va *o* unli tovushlari. *Besyâr* ravishining qo'llanilishi. *-o* va *wa* bog'lovchilari. O'rinning ifodalanishi. *ê* va *ô* unililari. *Ast* bog'lamasining bo'lishsiz shakli. So'roq gapning tuzilishi.

4-mavzu. Dariy tili alifbosi

Alifbo. *ألفبای دری* *alefbâ-ye dari*. O'zidan keyingi harflarga qo'shilmaydigan harflar. *ت, پ, ب* va *ث* harflari. Qisqa unilarning yozuvda ifodalanishi. Qisqa unilarning yozuvdagi ifodasi. *ن* va *ی* harflari. *و* va *ی* harflarining o'qilishi. Cho'ziq unilarning so'z boshida yozuvdagi ifodasi. Undosh tovushlarning ikkilanishi (*tašdid*).

5-mavzu. Dariy tilida undoshlarning talaffuzi

x va *h* undoshlari. *ham* yuklamasi. Kishilik olmoshlari *ضمایر شخصی* *zamâyer-e šaxsi*. Bog'lamaning tuslanishi (to'liq shakli). *از* *az* old ko'makchisi. *ه* harfi. *ح, ج, خ* va *س* harflari. *و* harfining *خ* harfidan keyin o'qilishi.

6-mavzu. Dariy yozuvining ayrim xususiyatlari

Dariy yozuvining ayrim xususiyatlari. So'zlarni ajratib va qo'shib yozish qoidalari. *م* harfi. *گ, ک* va *ل* harflari. Ligaturalar. So'zning tarkibini ajratib va qo'shib yozish. So'roq gapning yasalişi (*davomi*). *هست* *hast* so'zining

mustaqil ma'nosi. *داستان* *dâštan* fe'lining hozirgi zamonda tuslanishi.

7-mavzu. Dariy tilidagi arabiy harflar

ف va *ق* harflari. *همزه* *hamza*. Vositachi belgilarning yozilishi. *ع* va *غ* harflari. *ط, ض, ص* va *ظ* harflari. *أ* (*tanwin*) belgisi.

8-mavzu. Dariy tilida izofa

Dariy tilida izofa *إضافة* *ezâfa*. Izofaning imlosi.

9-mavzu. Dariy tilida 20 gacha bo'lgan sonlar

20 gacha bo'lgan sonlar va raqamlar. 1 dan 20 gacha bo'lgan sonlar. *چند* *čand* olmoshi haqida. *کدام* *kodâm* so'roq olmoshi. So'z oxiridagi unilarning yozuvda ifodalanishi. Hafta kunlarining nomlanishi. Kvalifikativ aniqlovchi. Ayrim so'zlarning fonetik variantlari. *نسبت یای* *yâ-ye nesbat*. *نسبت یای* *yâ-ye nesbat*ning imlosi. Ot bilan ifodalangan aniqlovchi. Izofali birikmada *کجا* ravishining qo'llanilishi.

10-mavzu. Dariy tilida uyushiq aniqlovchilar

Bir so'z turkumi orqali ifodalangan uyushiq aniqlovchilar. Turli so'z turkumi orqali ifodalangan uyushiq aniqlovchilar. Ot orqali ifodalangan aniqlovchi. Izofali old ko'makchilar.

11-mavzu. Dariy tilida birikuvchi olmoshlar

Birikuvchi olmoshlar *متصل ضمائر* *zamâyer-e mottasel*. Sifat va ravishlarda qiyosiy daraja. 21 dan 100 gacha bo'lgan sonlar. Son va ot birikmasining kesim ot qismi vazifasida qo'llanilishi. Tartib sonlar *ترتیبی عداد* *ya trîbîyî edad* *a'dâd-e tartîbî yâ wasfi*. Qarindoshlik terminlari.

12-mavzu. Otlarda ko'plik son

Otlarda ko'plik son. *-hâ* va *-ân* ko'plik affikslari. Ot bilan ifodalangan ega va kesimning sonda moslashuvi. Arab ko'plik affikslari *-ât /-jât* affiksi. *همه* va *تمام* olmoshlari. Arab ko'plik affikslari (*davomi*) *-in, -un* affikslari.

1-BOSQICH: AI DARAJA (BOSHLANG'ICH: OG'ZAKI NUTQ AMALIYOTI)

13-mavzu. Sifatlarda orttirma daraja

Sifatlarda orttirma daraja. Arab siniq ko'plik shakli.

14-mavzu. Dariy tilida fe'l so'z turkumi

Fe'l فعل *fe'l*. Sodda *fe'l* infinitivi مصدر *masdar*. *Fe'l* negizi ریشه *rêša-ye fe'l*. O'tgan zamon aniq *fe'li* (preterit) مطلق یا عادی ماضی فعل *Fe'l-e mâzi-ye âdi yâ motlaq*. *ن* *-na* inkor yuklamasining imlosi بودن *budan* va داشتن *dâštan* *âdi yâ motlaq*. *ن* *-na* inkor yuklamasining imlosi ishlatilishi. Prefiksli *fe'llar* affektlarining o'tgan zamon aniq *fe'l* shaklida ishlatilishi. Prefiksli *fe'llar* affektlarining o'tgan zamon aniq *fe'l* shaklida tuslanishi.

15-mavzu. Dariy tilida qo'shma fe'llar

Qo'shma *fe'llar* مرکب افعال *af'âl-e morakkab*. O'lchov so'zlari. Kecha-kunduz bo'laklarining nomlanishi. Vaqtning soat orqali ifodalanishi.

16-mavzu. Dariy tilida ort ko'makchi

را *râ* ort ko'makchisi. *خود* *xod* o'zlik olmoshi.

17-mavzu. Otlarda aniqlik kategoriyasi

و وحدت یای یای و وحدت یای و وحدت یای *ning imlosi*. یای *wahdat* و *yâ-ye nakaraning* ishlatilishi. Bo'lishsizlik olmoshlari *zamiy-ye* منفی ضمائر *manfi*. مصدري یای *masdari*. Salomlashish va xayrlashishda qo'llaniluvchi oborotlar.

18-mavzu. Dariy tilida sonlar va yil hisobi

100 dan katta sonlar. Mingliklar. Millionlar. Milliardlar. Yevropa oylarining afg'oncha nomi. Afg'onistonda yil hisobi. Afg'oniston taqvim oylarining nomi. Qo'shma fe'llarning kontakt va distant holati.

19-mavzu. Dariy tilida fe'l zamonlari

O'tgan zamon davom fe'li (imperfekt) *fe'l-e mâzi-ye estemrâri*. Sodda fe'llarning o'tgan zamon davom fe'li shaklida tuslanishi. Qo'shma fe'llarning o'tgan zamon davom fe'li shaklida tuslanishi. Prefiksli fe'llarning o'tgan zamon davom fe'li shaklida tuslanishi. Ko'chirma va o'zlashtirma gap.

20-mavzu. Dariy tilida hozirgi zamon fe'li

Hozirgi zamon negizi. Hozirgi-kelasi zamon fe'li *mozâre-e axbâri*. Hozirgi-kelasi zamon fe'lining ma'nolari.

21-mavzu. Dariy tilida fe'l mayllari

Fe'l mayllari *wojuh-e fe'l*. Buyruq mayli. Sodda fe'llarning buyruq maylida tuslanishi. Qo'shma fe'llarning buyruq maylida tuslanishi. Prefiksli fe'llarning buyruq maylida tuslanishi. Mulozamat shakllarining ifodalanishi.

22-mavzu. Dariy tilida shart-istak mayli

Shart-istak mayli *wajh-e eltezâmi*. Hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli (aorist) *mozâre'-e eltezâmi*. Aoristning sodda gaplarda ishlatilishi. O'tgan zamon shart-istak mayli *mâzi-ye eltezâmi* *داشتن* fe'lining buyruq va shart-istak mayllarida tuslanishi. Ehtimollik va gumon ma'nolarining ifodalanishi. Shart-istak maylining modal fe'llardan so'ng ishlatilishi. *توانستن* modal fe'li.

23-mavzu. Dariy tilida maqsad ergash gap

Maqsad ergash gap. Aoristning ayrim modal fe'llar bilan qo'llanishi. *xâstan* modal fe'li. Aoristning bilvosita buyruq ma'noli gaplarda qo'llanilishi. *بایستن* modal fe'li. Shaxssiz gap.

24-mavzu. Dariy tilida fe'l nisbatlari

Fe'l nisbatlari. Aniq nisbat *fe'l-e ma'lum*. Majhul nisbat *fe'l-e majhul*. Sodda va prefiksli fe'llarning majhul nisbat shakli. Qo'shma fe'llarning majhul nisbat shakli.

2-BOSQICH A2 DARAJA (TAYANCH: O'QISH VA YOZISH AMALIYOTI)

25-mavzu. Dariy tilida o'tgan zamon natijali fe'li

Bog'lamaning qisqa shakli. O'tgan zamon natijali fe'li (perfekt) *ماضی*

mâzi-ye naqli. O'tgan zamon natijali fe'lining qo'llanilishi. Aniq kelasi zamon fe'li *fe'l-e mostaqbal*.

26-mavzu. Dariy tili aorist

Aoristning mustaqil qo'llanilishi. Aoristning modal birikmalar bilan qo'llanilishi. Ba'zi bir xushmuomalalikni ifodalovchi so'zlar.

27-mavzu. Dariy tilida aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap. Aniqlovchi ergash gapning bosh gap ichida joylashishi. Aniqlovchi ergash gapning bosh gapdan keyin joylashishi. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida *yâ-ye ešâra* ishlatilishi. *yâ-ye ešâra* ishlatilmaydigan holatlar. Shart-istak mayli shakllarining aniqlovchi ergash gap tarkibida ishlatilishi.

28-mavzu. Dariy tilida uzoq o'tgan zamon fe'li

Uzoq o'tgan zamon fe'li (plyuskvamperfekt) *fe'l-e mâzi-ye ba'id*. Uzoq o'tgan zamon fe'lining qo'llanilishi. Holat fe'llarining xususiyatlari.

29-mavzu. Dariy tilida shart ergash gapli qo'shma gap

Shart ergash gapli qo'shma gapning qo'llanilishi.

30-mavzu. Dariy tilida matn tahlil qilish

matnini tahlil qilish. قبايل و اقوام

31-mavzu. Dariy tilida sifatlarning orttirma darajasi

Sifatlarning orttirma darajasi va ularning gapda ishlatilishi.

32-mavzu. Dariy tilida sabab ergash gapli qo'shma gaplar

Sabab ergash gapli qo'shma gaplarning qo'llanilishi.

33-mavzu. Dariy tilida ravishlar

Dunyo tomonlarini anglatuvchi so'zlardan yasalgan ravishlar.

34-mavzu. Dariy yer o'lchamlari

Dariy yer o'lchamlari nomlari.

35-mavzu. Afg'oniston viloyatlari

Afg'oniston viloyatlari va ularning markazlari.

36-mavzu. Dariy tilida taxminiy raqamlar

Taxminiy raqamli ma'lumotlar uchun ishlatiladigan iboralar.

3-BOSQICH: B1 DARAJA (BOSHLANG'ICH O'RTA DARAJA: O'QISH VA YOZISH AMALIYOTI/ BOSHLANG'ICH O'RTA DARAJA: OG'ZAKI NUTQ AMALIYOTI)

37-mavzu. Dariy tilida *yâ* suffiksining qo'llanilishi

yâ suffiksi bilan kelgan so'zlarning ot va sifat ma'nosida ishlatilishi.

38-mavzu. Dariy tilida "ba" predlogi bilan ishlatiladigan fe'llar

"ba" predlogi bilan ishlatiladigan fe'llar haqida ma'lumot.

39-mavzu. Dariy tilida affikslar yordamida so'z yasalishi

Dariy tilida affikslar yordamida so'z yasalishi haqida ma'lumot.

40-mavzu. Joy-makon so'zlarini anglatuvchi otlarni yasovchi suffikslar
Joy-makon so'zlarini anglatuvchi otlarni yasovchi suffikslar haqida ma'lumot.

41-mavzu. Dariy tilida otlardan sifat yasalishi

Suffikslar yordamida otlardan sifat yasalishi haqida ma'lumot.

42-mavzu. Dariy tilidagi arabcha leksika

Arab leksikasi haqida umumiy ma'lumotlar. Arab artikli haqida ma'lumot.

43-mavzu. Dariy tilida arab o'zakkari

Arab o'zakkari haqida ma'lumot.

44-mavzu. Dariy tilida zamon va makon nomlari

Zamon va makon nomlari haqida ma'lumot.

45-mavzu. Dariy tilida arabcha birinchi bob sifatdoshlari

Dariy tilida birinchi bob sifatdoshlari haqida ma'lumot.

46-mavzu. Dariy tilida arabcha ikkinchi bob

Dariy tilida ikkinchi bob masdari va sifatdoshlari.

47-mavzu. Dariy tilida uchinchi bob

Dariy tilida uchinchi bob masdari va sifatdoshlari.

48-mavzu. Dariy tilida to'rtinchi bob

Dariy tilida to'rtinchi bob masdari va sifatdoshlari.

4-BOSQICH B2 DARAJA (YUQORI O'RTA DARAJA: O'QISH VA YOZISH AMALIYOTI VA YUQORI O'RTA DARAJA: OG'ZAKI NUTQ AMALIYOTI)

49-mavzu. Dariy tilida kasb-hunar nomlarining yasalishi

Suffikslar yordamida kasb-hunar nomlarining yasalishi haqida ma'lumot.

50-mavzu. Dariy tilida arab tilidan o'zlashgan kasb-hunar nomlari

Arab tilidan o'zlashgan kasb-hunar nomlari haqida ma'lumot.

51-mavzu. Dariy tilida mavhum ma'nodagi otlarning yasalishi

Dariy tilida mavhum ma'nodagi otlarning yasalishi haqida ma'lumot.

52-mavzu. Dariy tilida qo'shma so'zlar

Qo'shma so'zlar haqida ma'lumot.

53-mavzu. Dariy tilida fe'l negizi bilan yasalgan qo'shma so'zlar

Fe'l negizi bilan yasalgan qo'shma so'zlar haqida ma'lumot.

54-mavzu. Dariy tilidagi G'arbiy Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar

Dariy tilidagi G'arbiy Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar haqida ma'lumot.

55-mavzu. Dariy tilidagi diniy tushunchalar bilan bog'liq iboralar

Dariy tilidagi diniy tushunchalar bilan bog'liq iboralar haqida ma'lumot.

56-mavzu. Dariy tilida pashtucha o'zlashmalar

Pashtu tilidan o'zlashgan so'zlar haqida ma'lumot haqida ma'lumot.

57-mavzu. Dariy tilida yasama sifatning ot sifatida ishlatilishi

Yasama sifatning ot sifatida ishlatilishi haqida ma'lumot.

58-mavzu. Dariy tilida sifatdosh

Dariy tilida sifatdosh, o'tgan zamon sifatdoshi, hozirgi zamon sifatdoshi, بی *yá-ye layáqat* orqali yasaladigan sifatdoshlar haqida ma'lumot.

59-mavzu. Dariy tilida suffikslar yordamida fe'llarning yasalishi

Suffikslar yordamida fe'llarning yasalishi haqida ma'lumot. Dariy tilida majburlash ma'nosini ifoda etilishi haqida ma'lumot.

60-mavzu. Dariy tilida ikki ot o'zakdan yasalgan murakkab so'zlar

Ikki ot o'zakdan yasalgan murakkab so'zlar haqida ma'lumot.

5-BOSQICH: C1 DARAJA (YUQORI DARAJA: O'QISH VA YOZISH AMALIYOTI)

61-mavzu. Dariy tilida arabcha beshinchi bob

Beshinchi bob harakat nomi va sifatdoshlari haqida ma'lumot.

62-mavzu. Dariy tilida arabcha oltinchi bob

Oltinchi bob harakat nomi va sifatdoshlari haqida ma'lumot.

63-mavzu. Dariy tilida arabcha yettinchi bob

Yetinchi bob harakat nomi va sifatdoshlari haqida ma'lumot.

64-mavzu. Dariy tilida arabcha sakkizinchi bob

Sakkizinchi bob harakat nomi va sifatdoshlari haqida ma'lumot.

65-mavzu. Dariy tilida arabcha o'ninchi bob

O'ninchi bob harakat nomi va sifatdoshlari haqida ma'lumot.

66-mavzu. Dariy tilida ot va sifatning yasalishi

Ot va sifatning prefikslar yordamida yasalishi va qo'llanilishi haqida ma'lumot.

67-mavzu. Dariy tilida bir o'zakli antonim

Bir o'zakli antonim so'zlar haqida ma'lumot haqida ma'lumot.

68-mavzu. Dariy tilida takror so'zlar

Dariy tilida takror so'zlar va ularning qo'llanilishi.

69-mavzu. Dariy tilida kichraytirish ma'nosidagi otlar

Dariy tilida kichraytirish ma'nosidagi otlarning yasalishi.

70-mavzu. Dariy tilida ikki negizdan iborat qo'shma sifatlar

Ikki negizdan iborat qo'shma sifatlar va ularning qo'llanilishi. Ranglarning ifodalanishi.

71-mavzu. Dariy tilida mavhum ma'nodagi ikki negizdan iborat qo'shma so'zlar

Mavhum ma'nodagi ikki negizdan iborat qo'shma so'zlar va ularning qo'llanilishi.

72-mavzu. Dariy tilida holat, his va tasodiflarni ifodalash

Holat, his qilish va tasodifiy harakatlarni tasvirlashda ishlatiladigan so'z birikmalari.

73-mavzu. Dariy tili sintaksisi haqida umumiy tushuncha, qarashlar va yondashuvlar

Dariy tili sintaksisi haqida ma'lumot. Sintaksisga oid nazariy qarashlar.

74-mavzu. So'z birikmalari sintaksisi

So'z birikmalarining turlari. Izofali so'z birikmalari. Old ko'makchili so'z birikmalari. Bitishuvli so'z birikmalar. Murakkab so'z birikmalari.

75-mavzu. So'z birikmalar yasalishi

Old ko'makchi vositasida birikkan so'z birikmalar. Egalik qo'shimchalari vositasida birikkan so'z birikmalar. Murakkab so'z birikmalari tarkibi va

turlari.

76-mavzu. Bitishuv usuliga ko'ra tashkil topgan so'z birikmalar
Bitishuv usulidagi so'z birikmalarining tarkibida bosh so'z.

77-mavzu. Gap nazariyasining ayrim masalalari
Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplarni farqlash masalasi. Ega.

78-mavzu. Dariy tilida gap qurilishi
O't-kesimli sodda yig'iq. Sodda yoyiq gaplar. Fe'l-kesimli sodda gaplar.

79-mavzu. Sodda gaplar sintaksisi.
Bir tarkibli gaplar. Ikki tarkibli gaplar. Shaxssiz gaplar.

80-mavzu. Fe'l-kesim turlari.
Sodda fe'l-kesim. Murakkab fe'l-kesim. Ismiy kesim. Ismiy predikativlar.
Fe'liy-ismi kesim. Kesimning boshqa turlari. Kesimning ramkali qurilmasi.

81-mavzu. Gap bosh bo'laklarining moslashuvi.
Gapning ikkinchi darajali bo'laklari. Aniqlovchi. Hol.

82-mavzu. Qo'shma gaplar sintaksisi.
Qo'shma gaplar sintaksisi.

83-mavzu. Dariy tilida bog'langan qo'shma gaplar
Bog'langan qo'shma gaplar haqida ma'lumot.

84-mavzu. Dariy tilida ergashgan qo'shma gaplar
Ergashgan qo'shma gaplar haqida ma'lumot.

85-mavzu. Dariy tilida ega ergash gaplar
Dariy tilida ega ergash gaplar haqida ma'lumot.

86-mavzu. Dariy tilida kesim ergash gaplar
Dariy tilida kesim ergash gaplar haqida ma'lumot.

87-mavzu. Dariy tilida to'ldiruvchi ergash gap
Dariy tilida to'ldiruvchi ergash gaplar haqida ma'lumot.

88-mavzu. Dariy tilida aniqlovchi ergash gaplar
Dariy tilida aniqlovchi ergash gaplar haqida ma'lumot.

89-mavzu. Dariy tilida shart ergash gaplar
Dariy tilida shart ergash gaplar haqida ma'lumot.

90-mavzu. Dariy tilida maqsad ergash gaplar
Dariy tilida maqsad ergash gaplar haqida ma'lumot.

91-mavzu. Dariy tilida maqsad ergash gaplar
Dariy tilida sabab ergash gaplar haqida ma'lumot.

92-mavzu. Dariy tilida payt ergash gaplar
Dariy tilida payt ergash gaplar haqida ma'lumot.

O'quv faniga qo'yiladigan malaka talablari

Oliy ta'lim muassasalari tinglovchilariga o'quv jarayoni davomida o'zlashtirishi belgilangan dariy tili quyidagi kompetensiyalar bo'yicha ko'rsatilgan talablar asosida o'qitilishi nazarda tutiladi:

Kompetensiyalar	Til ko'nikmalariga qo'yilgan talablar
A1 daraja	
Tinglab tushunish	Dariy tilining fonetik tovushlarini aniqlay oladi, emfatik tovushlar hamda bir-biriga yaqin talaffuz qilinadigan tovushlarni ajrata oladi. Harflarning talaffuziga oid maxraj qoidalari talabiga to'liq rioya qiladi. Bundan tashqari dariy tilidagi da gaplarni, dialoglar hamda sodda savollarni tushuna oladi.
O'qish	Undosh harflar bilan unli tovushlarni qo'shib, to'g'ri talaffuz qila oladi. Faqat o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha sodda matnlarni harakatlari yordamida qisqa matnlarni o'qiy oladi.
Yozuv	Dariy alifbosidagi ikki va to'rt ko'rinishli harflar imlosi, tovush va harflar mutanosibligi, yozishning asosiy qoidalarni (husnixat, orfografiya) o'zlashtiradi. Tegishli mavzuga oid so'z birliklari va birikmalarni, shuningdek, sodda gap va iboralarni yoza oladi.
Gapirish	- salomlashish va murojaat qilish, taklif, tavsiya qilish va taklifga javob berish, kechirim so'rashning sodda kundalik shakllarini ishlata olishi; - qisqa muloqotlarda muloqotni boshqarish vazifasini o'ziga olmasdan ishtirok eta olishi.
Grammatika	grammatikaning boshlang'ich darajasi: sodda gaplar tuzilishi, so'roq gaplar, predloglar, olmoshlarni ajrata olish.
A2 daraja	
Tinglab tushunish	Tinglab yoki o'qib eshittirilgan dialog, sodda matn yoki jumalarni to'liq takrorlab ayta oladi, tarjima qila oladi va qisqa savollarga qisqa javob bera oladi. Darslik, audio-video material asosida berilgan kundalik hayotga oid mavzularni tinglab tushunadi, ma'lumotlarning asosiy qismini ajrata oladi, muhim ma'lumotlarni tushuna oladi.
O'qish	Matn tarkibidagi qisqa va cho'ziq bo'g'inlarni to'g'ri talaffuz qiladi. Darslik, audio-video material asosida taqdim etilgan sodda matnlarni ifodali o'qib bera oladi.
Yozuv	Avval o'zlashtirilgan mavzularda kichik matn yoza oladi. Elektron xabarlarga qisqa va sodda so'z va iboralarni qo'llagan holda javob yoza oladi.
Gapirish	-qisqa muloqotda ishtirok eta oladi; -sodda iboralardan foydalanib, tanish mavzuda o'z fikrini umumiy ifoda eta oladi; -sodda yumushlarni amalga oshira oladi, masalan, chiptalar sotib oladi, varid qilish, oshxona taom buyura oladi (buyurtma berish); -tushunmaganligini bildira oladi.
Grammatika	Dariy tilida so'z turkumlaridan ism (ya'ni ot, sifat, son, olmosh, ravish) va fe'lni o'zlashtiradi, ular asosida gaplar tuzadi, gapning uyushiq bo'laklarini qo'llaydi. Sodda gaplarning bo'lishli va bo'lishsiz shakllarini tuza oladi. Inkor shakldagi so'roq gaplar tuza oladi. O'zlashtirilgan leksik birliklarni kontekstda qo'llay oladi.
B1 daraja	

Tinglab tushunish	Darvik, o'qov qo'llanma, audio-video material asosida berilgan turli mavzulardagi matnlar (hikoya, maqolalar, xabarlar, qisqalar va h.k.) ni tinglab, tushunadi. Ularini o'z tiliga lug'at yordamida tarjima qila oladi. Material asosida berilgan barcha savollarga erkin javob bera oladi.
O'qish	Dariy tilidagi qisqa hikoya, sodda ommaviy axborot matnlarini, xat, elektron xat, qisqa rasmiy hujjatlarini qisman o'qib, to'liq tushuna oladi.
Yozuv	Dariy tilida avval o'zlashtirilgan grammatik va leksik bilimlarini qo'llagan holda 80-100 ta so'zdan iborat hikoyalar, esse yoza oladi. Sodda ish hujjatlarini (xatlar va elektron xatlar, rejalar, rezume (shaxsiy ma'lumotnoma) va h.z.) ni yoza oladi.
Gapirish	Dariy tilida o'z haqida to'liq ma'lumot bera oladi, o'zi yashayotgan davlat, shahar va h.k.larni dariy tilida to'liq ta'riflab, uni tasvirlab bayon eta oladi. Bundan tashqari turli soha va turli vaziyatlarga oid mavzular (kasbga oid, ommaviy axborot, do'stlik orasida) da erkin so'zlay oladi, savol-javoblarda o'zining shaxsiy qarashlari va fikrlarini qiyinchiliksiz ifodalay oladi.
Grammatika	Dariy tilining avvalgi darajalarida o'zlashtirilgan grammatik materialni ommaviy va kasb-hunarga oid kontekstlarda yetarli darajada to'g'ri qo'llay oladi. Kommunikativ maqsadlarda zarur bo'ladigan dariy tili grammatikasining barcha asosiy elementlarini tanii oladi va ulardan to'g'ri foydalana oladi.
B2 daraja	
Tinglab tushunish	Kundalik va ijtimoiy yo'nalishdagi mavzularni, adabiy til me'yorlari doirasidagi o'g'zaki nutq yoki audio-video matnlarini, shuningdek, tinglovchiga oldindan ma'lum yoki ma'lum bo'lmagan mavzularni tushuna oladi. Til egasi bilan tanish va belgilangan mavzuda muloqotga kirishganda, uning aksariyat jihatlari tushuna oladi.
O'qish	Dariy tilidagi katta hajmdagi matnlarini belgilangan vaqt ichida imlo qoidalarini hamda punktuatsion talablarga rioya qilgan holda o'qiy oladi.
Yozuv	Rasmiy yoki norasmiy xatlar, ish yuritish hujjatlarini, 100-150 ta so'zdan iborat matnlar, esse yoza oladi.
Gapirish	Dariy tilida tanish kundalik va boshqa umumiy mavzularda ma'lum darajada o'zida ishonch bilan ma'lumot almasha oladi, tekshira oladi va tasdiqlay oladi. Muammoni umumiy tarzda tushuntirib bera oladi. Kutilmagan muloqot vaziyatlarida ishtirok eta oladi; tayyorgarliksiz suhbat va muhokamalarni olib bera oladi. Dialog shaklida suhbat qura oladi.
Grammatika	Dariy tilining avvalgi darajalarida o'zlashtirilgan grammatik materialni turli oid kontekstlarda to'g'ri ishlatish (fe'l zamonlari, modal so'zlar, sifat va uning darajalari, predloglar va hokazo).
C1 daraja	

Tinglab tushunish	Kundalik, ijtimoiy, siyosiy, ta'limiy va ilmiy yo'nalishdagi mavzularni, adabiy til me'yorlari va ayrim sheva doirasidagi o'g'zaki nutq yoki audio-video matnlarini, TV dasturlarini, OAVdagi chiqish va xabarlarini, shuningdek, tinglovchiga oldindan ma'lum yoki ma'lum bo'lmagan mavzularni tushuna oladi. Til egasi bilan notanish mavzuda muloqotga kirishganda, uning to'liq jihatlari tushuna oladi.
O'qish	Dariy tilidagi katta hajmdagi notanish matnlarini belgilangan vaqt ichida imlo qoidalarini hamda punktuatsion talablarga rioya qilgan holda diakritik belgilariz o'qiy oladi va tahlil qila bilish.
Yozuv	Rasmiy yoki norasmiy xatlar, ish yuritish hujjatlarini, erkin mavzular bo'yicha 150-200 ta so'zdan iborat matnlar, esse yoza oladi.
Gapirish	Dariy tilida maishiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy va boshqa turli mavzularda erkin, ravon tarzda ma'lumot almasha oladi, tekshira oladi va o'z nuqtayi nazarini bildira oladi. Muammoni tushuntirib bera oladi va uni hal qilish yo'llarini taklif qila oladi. Til egasi bilan adabiy tilida va shevada kutilmagan muloqot vaziyatlarida ishtirok eta oladi; tayyorgarliksiz suhbat va muhokamalarni olib bera oladi. Savollar berib, tegishli sharhlar kelirib, intervyu olib bera oladi.
Grammatika	Dariy tilining barcha darajalarida o'zlashtirilgan grammatik materialni har qanday kontekstlarda to'g'ri ishlatish (fe'l zamonlari, mayyilari, modal so'zlar va tarkibotlar, sifat va uning darajalari, predloglar, sonlar, murakkab gaplar va hokazo).

III. Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Kurs ishi tasdiqlangan o'quv rejada ko'zda tutilgan ta'lim yo'nalishlarida bajariladi.

Kurs ishi mavzuning dolzarbligi va erishilgan natijalarning amaliyotga tadbiri, uning uslubiy darajasi hamda rasmiylashtirilishiga qarab baholanadi. Kurs ishini bajarishning muhim bosqichi rejada belgilangan savollar yoritilishida o'zaro nazariy va amaliy aloqadorlikni ta'minlashdir. Kurs ishini tarkibiy tuzilishini to'g'ri shakllantirish talabaga uning maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olish hamda ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini, shuningdek, kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ketma-ket bajarishga imkon yaratadi. Kurs ishini tarkibiy tuzilishini to'g'ri ishlab chiqilishi talabaga izlanishning oldiga qo'yilgan maqsad hamda natijalarini aniq ifodalash, fikrlarni mantiqiy bayon etish uslublari va kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ajratish imkonini beradi.

Kurs ishi talabaning safohiyati hamda fan bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmaga egaligini namoyon qiladi. Kurs ishida o'rganiladigan masalalarning nazariy jihatlari, aniqlangan muammolarini, qo'yilgan vazifalarni tahlil qilish hamda muammolarni hal etishni ko'zlangan holda reja tuziladi va shu asosida bajariladi. Talaba kurs ishi bo'yicha izlanish natijalarini yoritishda auditni tashkil qilishning o'ziga xosligi, xorijiy davlatlarning tajribalari va orttirgan amaliy yutuqlarni umumlashtirgan

holda belgilangan muammolarning yechimi yuzasidan yo‘l-yo‘riqlarni ishlab chiqadi va ularni bartaraf etish yo‘llarini tavsiya etadi.

Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiy talablar qo‘yiladi:

- muammoni bibliografik tahlil qilish;
- to‘plangan materiallarni tanqidiy o‘rganish;
- taklif va tavsiyalarni asoslab berish;
- fikrni ketma-ketlikda, muayyn izchilikda bayon qilish;
- kurs ishini qo‘yilgan talablar bo‘yicha rasmiylashtirish.

Xorijiy sharq tili (daryi tili) fanidan kurs ishlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Izofali so‘z birikmalarining semantikasi.
2. Old ko‘makchili fe‘liy so‘z birikmalarining ishlatilishiga doir.
3. Bitishuvli so‘z birikmalariga doir.
4. Birikma olmoshli so‘z birikmalariga doir.
5. Shaxssiz sodda gaplar.
6. O‘tgan zamon fe‘l formalarining hozirgi zamon afg‘on prozasida ishlatilishiga oid.
7. Ko‘plik formalarining matbuoti materiallarida ishlatilishiga oid.
8. Daryi tilida “yo‘l”larning vazifalari.
9. Sifatdoshlarning otlar va sifatlarga aylanishi.
10. Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplar va hokazo.

IV. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar

Xorijiy til va adabiyoti fanidan mustaqil ishlar maqsadi – talabalarning kasbiy kommunikativ faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish, ularning ijodiy faoliyatini o‘stirish va xorijiy til va adabiyoti ustida mustaqil ishlay olish malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish va rivojlantirishdan iborat.

• Talabalarning til tayyorgarlik sifatini oshirib borish, til va mutaxassislik bo‘yicha adabiyotlar ustida ishlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

• O‘z kasbiy bilim va malakalarini keyinchalik mustaqil to‘ldirib va yangilab borish ehtiyojlarini yaratish va saqlab qolish, xorijiy til va adabiyoti bo‘yicha yaratilgan malaka va ko‘nikmalarni o‘stirib, rivojlantirib borish;

• Talaba bajarishi kerak bo‘lgan ishlarni to‘g‘ri tashkil qilish, kelib

chiqadigan qiyinchiliklarni oldindan bila olish, his etish va ularni bartaraf qilish yo‘llarini topa olish.

• Ibrat farzandlari platformasidan mustaqil ta‘lim doirasida samarali foydalanish.

• Fanga doir videomahsulotlardan foydalangan holda mustaqil ta‘limni olib borish.

Xorijiy sharq tili fanidan mustaqil ta‘lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. زلمی matni.
2. افغانستان matni.
3. خانه matni.
4. فامیل matni.
5. گروپ ما matni.
6. شهر کابل matni.
7. صبح matni.
8. میله matni.
9. سوانح matni.
10. درس matni.
11. سال matni.
12. تلفون matni.
13. کابل مرکز افغانستان matni.
14. رخصت روز شهر در matni.
15. اردوی افغانستان matni.
16. میوند محاربه matni.
17. افغانستان در مالداری و زراعت matni.
18. افغانستان معاصر تاریخ از بی صفحه matni.
19. ملی های جشن و عیدها matni.
20. مهمان matni.
21. افغانستان استقلال matni.
22. سیمرغ و شهزاده matni.
23. امتحان matni.
24. پیروزی روز برگذاری matni.
25. آغاز تحصیلیسال matni.
26. ملا نصر الدین و قیامت matni.
27. رخصتی matni.
28. افغانستان matni.
29. منابع طبیعی افغانستان matni.
30. مسابقه matni.
31. عدالت حاکم matni.
32. صنایع افغانستان (قسمت یکم) matni.
33. صنایع افغانستان (قسمت دوم) matni.

34. صنایع افغانستان (شمت سوم) matni.
35. مونر matni.
36. اردوی افغانستان matni.
37. جشن استقلال matni.
38. کور matni.
39. بازار matni.
40. محاربه میوند matni.
41. غذای افغانی matni.
42. چین ملا نصرالدین matni.
43. یک خانواده کوچی matni.
44. مریض matni.

Yuqori kurslarda mustaqil ish sifatida uy o'qishlari uyushtirish maqsadga muvofiq bo'lib, o'qish uchun hikoya, dostonlar tavsiya etiladi. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

*Izoh: Kurs ishi va mustaqil ta'lim mavzulari fan doirasida talabalar soni va istagiga ko'ra o'zgarishi mumkin.

3.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Xorijiy sharq tili fani bo'yicha:

- xorijiy sharq tilining morfologik tuzilishi va tovush tizimini;
- xorijiy sharq tilidan o'qitish olib borilayotgan tilga tarjima qilish amaliyoti spetsifikasi va stilistik xususiyatlari, me'yoriy grammatika asoslarini;
- xorijiy sharq tilining rivoji va til doirasidagi ekstralingvistik shakllanishning asosiy faktorlari hamda tarixiy manbalari, uning dialektik xilma-xilligini;
- qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasidagi munozarali masalalarni;
- yozma adabiy til tarixi, yozma yodgorliklar tili haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;
- xorijiy sharq tilining yozma, adabiy va og'zaki shakllarini;
- tilning ilmiy tavsifi, yozuv, grafik xususiyatlari, orfografiyasi, punktuatsiyasi, leksik-grammatik xususiyatlari, so'z yasalishi va uning tuzilishi, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish qonuniyatlarini;
- sodda va qo'shma gaplar, so'z birikmalari, leksika va yozma nutq, dialektik leksikaning asosiy xususiyatlarini;
- matn tili, yozuv xususiyatlari, imlo va punktuasion xususiyatlari, leksik-grammatik xususiyatlari, so'z yasalishi va uning tuzilishi, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish qonuniyatlarini;
- ilmiy atamalar tizimi, lingvistika va adabiyotshunoslikka tegishli tushunchalarni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

Bular bilan bir qatorda bakalavr:

- xorijiy sharq tilidagi adabiy matnlarni o'qitish olib borilayotgan tilga tarjima qila olish;
- xorijiy sharq tilida chet ellik mutaxassislar bilan muayyan sohada va umumiy masalalarda to'laqonli jonli muloqot olib borish *ko'nikmasiga ega bo'lishi*;
- har turli va murakkab matnlarni o'qitish olib borilayotgan tildan birinchi xorijiy tilning hozirgi adabiy shakliga yozma tarjima qila olish;
- xorijiy sharq tilida muloqot qilish, nutq so'zlash;
- xorijiy sharq tilidan o'qitish olib borilayotgan tilga suhbat, nutq va ma'ruzalarni og'zaki izchil va sinxron tarjima qila olish;
- xorijiy sharq tili va o'qitish olib borilayotgan tildagi ma'lumotlarni qo'llab annotatsiya, referat, ma'lumotlar to'plash, tuzish *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

C1 bosqichi talabasi quyidagi lingvistik kompetensiyalarga javob berish kerak:

tinglab tushunish:

- talabalar kundalik, ijtimoiy, ta'limiy yo'nalishidagi mavzularni, adabiy til me'yorlari doirasidagi og'zaki nutq yoki diskrlarga yozilgan shakldagi matnlarni, shuningdek, o'quvchiga oldindan ma'lum yoki ma'lum bo'lmagan mavzularni tarkibida idiomatik birliklar bo'lishiga qaramasdan tushuna olishi;
- sharq tilida so'zlashuvchi kishilarning fikrlarini bemalol, erkin tushunishlari;
- ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etiladigan yoki eshittiriladigan yangiliklar, joriy voqea va hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy qismini tushuna olishlari;
- hujjatli filmlar, jonli muloqot, tok-shou, spektakllar va badiiy film qahramonlari adabiy me'yorda so'zlashayotgan bo'lsalar, ularning ma'nolarini tushuna olishlari kerak.

gapirish:

dialog:

- turli xil mavzularda tayyorgarliksiz, tez va grammatik xatolarga yo'l qo'ymasdan, vaziyat taqozosiga ko'ra gapira olishlari;
- bemalol va erkin ravishda oldindan belgilab berilgan savollardan chetga chiqib, kerakli o'rinlarda fikr aytib, suhbat qura olishi,
- kasbiy-kommunikativ holatlarga asoslangan, ma'lum bosqichiga mo'ljallangan erkin va me'yoriy dialoglarda qatnashishi kerak.

monolog:

- mutaxassisligi bo'yicha aniq, tez va batafsil axborot berishni, tavsiflashni, aniq va mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan tafsilotlari bilan,

	<p>eshituvchilarga tushunarli bo'ladigan darajadagi ma'ruza qila olish salohiyatiga ega bo'lishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> • kasbiy yo'nalish bo'yicha barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan har qanday monologni tuza olishi; • tayyorgariksiz ma'ruza mavzusiga oid bo'lmagan masalalarda fikr-mulohazalar bildirgan tinglovchilarning fikrlarini rivojlantira olishi hamda o'z fikrlarini oson va qulay shaklda ifoda eta olishini namoyish qilishi kerak. <p>o'qish:</p> <ul style="list-style-type: none"> • murakkab bo'lgan matnni ko'zdan kechirib, undagi o'ziga kerakli muhim ma'lumotlarni ajrata bilishi; • turli janrlardagi kasbga oid matnlarni tushunish (ilmiy maqolalar, zamonaviy muammolar bo'yicha ma'lumotlar) va muayyan o'qish bosqichiga asoslangan nutq ko'nikmalariga mos bo'lgan matnlarni o'rganish hamda zamonaviy badiiy nasrni tushunishi kerak. <p>yo'zish:</p> <ul style="list-style-type: none"> • kasbga oid bo'lgan manbalarni eshitib, annotatsiyalar yozish; • elektron va rasmiy xatlar, ma'ruzalar, tezislari yoki turli referatlar yozish hamda mutaxassislik bo'yicha asosiy ish hujjatlarni tuza olishi kerak. <p>Yuqoridagilardan tashqari bakalavr quyidagi til bilimlari malakasiga ega bo'lishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • nutqning fonetik jihatlar - talaffuz ko'nikmasi va malakasini egallashi va rivojlantirishi; ma'lum o'quv bosqichidagi turli kommunikativ holatlarni bayon eta olishi; • nutqning leksik jihatlar - ma'lum o'quv bosqichida turli muloqot uchastkasi doirasidagi kasbga yo'naltirilgan kommunikativ so'z qatlamini o'zlashtirishi; • nutqning grammatik jihatlar - ma'lum o'quv bosqichiga asoslangan turli kommunikativ holatlar doirasidagi mavzuga oid konstruksiyalar va bir-biriga bog'liq xususiyatlarini egallashi lozim.
4	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida</p>

	<p>mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Alimova X., Xo'jaqulov Yu., Kurbanova G. Daryi tili. – T.: Fan va texnologiya, 2018. 2. Alimova X. Daryi tili (morfologiya). – T., 2013. 3. Umarova S. Daryi tili. – T.: TDSHU, 2020. 4. نگهت سعیدی محمد نسیم. دستور زبان معاصر دری. – کابل، ۱۳۹۲. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: "O'zbekiston", 2022. – 440 b. 6. Shokirov O., Umarova S. Daryi tili sintaksisi. – T.: TDSHU, 2009. 7. Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. – М., 1985. <p>Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 8. www.mt.tashgiv.uz 9. www.ziyonet.uz 10. www.dawatnet@start.no 11. www.ibratfarzandlari.uz 12. www.afghanpaper.com
7.	<p>Fan dasturi "Eron-afg'on filologiyasi" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2024-yil "28" 06 dagi "20" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti kengashining 2024-yil "01" 07 dagi "11" - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>X.V. Mirzaxmedova - TDSHU "Eron-afg'on filologiyasi" kafedrasini mudiri, dotsent, DSc.</p> <p>X.A. Uktamova - TDSHU "Eron-afg'on filologiyasi" kafedrasini o'qituvchisi, PhD.</p> <p>N</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>A.M. Mannonov - Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Eron-afg'on filologiyasi" kafedrasini professori, f.f.d.</p> <p>X. Turdiyeva - A.Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetini o'qituvchisi falsafa.f.d. (PhD)</p> <p>N.Z. Yusupova - O'zbekiston Qurolli Kuchlar Akademiyasi Tillar kafedrasini dotsenti;</p> <p>F.A. Nizomova - O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Sharq tillari kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.</p>